

"Yagona telefon" xizmati Reglamenti

1. Xizmat (pasport) turi

1.1. Xizmat nomi

Toshkent viloyati hokimligining "Yagona telefoni (devonxona)" xizmati telefon raqami 0 371 232-80-63 orqali murojaatlarni qabul qilish.

1.2. Xizmat natijasi

Murojaatlarni ko'rib chiqilishi natijalarini va qabul qilingan qaror og'zaki ravishda telefon orqali og'zaki ravishda ma'lum qilinadi.

1.3. Xizmat ko'rsatuvchi tashkilot va blank olish joyi

Murojaatni ko'rib chiqish alohida blank va boshqa hujjatlarni talab qilinmaydi. O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida" gi Qonuni talabalariga rioya yetish so'raladi.

1.4. Normativ hujjat

O'zbekiston Respublikasi 2017 yil 11 sentabrdagi 445-sonli "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida" gi Qonuni

1.5. Xizmatdan foydalanuvchilar

Yuridik va jismoniy shaxslar - O'zbekiston Respublikasi fuqarolari hamda chet el davlati fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar.

1.6. Murojaatlarni qabul qilish

Haftaning dushanba kunidan juma kuniga qadar soat 9:00dan –18:00 (tushlik 13:00 dan – 14:00) gacha. Dam olish, haftaning shanba va yakshanba kunlari.

1.7. Ijro muddati

O'zbekiston Respublikasi 2017 yil 11 sentabrdagi 445-sonli "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida" gi Qonuni hamda Toshkent viloyati hokimining 2018 yil 12 maydagi 341-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Toshkent viloyati hokimligida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi Nizomi"da belgilangan tartibda va muddatlarda:

- murojaatlar kelib tushgan kundan boshlab, 15 kun mobaynida (*qo'shimcha o'rganishni talab yetuvchi murojaatlar xolati bo'yicha ma'lumot ariza yuborgan shaxsga yetkaziladi*);

- qo'shimcha o'rganishni talab etilmaydigan murojaatlar 30 kundan kechiktirilmay ko'rib chiqiladi.

2. Xizmatdan foydalanish ma'lumotlari

2.1. Umumiy ma'lumot

Murojaat qilish uchun "Yagona telefoni" raqamlari haqidagi ma'lumotlar Toshkent viloyati hokimligining rasmiy veb-sayti www.toshvil.uz da joylashtirilgan. "Yagona telefon (devonxona)" telefon raqam 0 371 232-80-63

2.2. Murojaat haqida ma'lumot olish

Xizmat qo'ng'iroq qilish orqali amalga oshiriladi.

Murojaatchiga, xizmatni ko'rsatayotgan idora manzili, ish vaqti, qabul qilish kunlari, xizmatdan foydalanish tartiblari va muddatlari to'g'risida ma'lumotlarni taqdim etish kafolatlanadi.

2.3. Xizmat ko'rsatish joyi haqida ma'lumot
110500, Toshkent viloyati, Nurafshon shahri, Toshkent yo'li ko'chasi 90 uy.

2.4. Foydalaniladigan blank (forma) hujjatlar
"Yagona telefoni (devonxona)" orqali foydalaniladigan blank (forma)lar belgilanmagan.

3. Xizmat ko'rsatish

3.1. Ish vaqti

Haftaning dushanba kundan juma kuniga qadar soat 9:00dan – 18:00 (tushlik 13:00 dan – 14:00) gacha. Dam olish, haftaning shanba va yakshanba kunlari.

3.2. Kutish shartlari

Telefon qo'ng'irog'i orqali xizmat ko'rsatish belgilangan tartibda olib boriladi.

4. Xizmat faoliyati olib borilishi

4.1. Zarur hujjatlar

"Yagona telefoni (devonxona)" orqali murojaat qilishda fuqarolar familiyasi, ismi, otasining ismini, yashash joyi to'g'risidagi ma'lumotlarni hamda murojaatning mohiyati va mazmunini bayon qilishi shart.

Familiya (ismi, otasining ismi), yashash joyi to'g'risidagi ma'lumotlar murojaatda ko'rsatilmagan bo'lsa yoki yolg'on ma'lumotlar taqdim yetilgan taqdirda, ushbu murojaat anonim hisoblanadi va ko'rib chiqilmaydi.

4.2. Xizmat uchun to'lov

Xizmat bepul amalga oshiriladi.

4.3. Davlat xizmati ko'rsatish bosqichi

"Yagona telefoni (devonxona)" orqali murojaatni ko'rib chiqish qo'yidagi bosqichlarda amalga oshiriladi.

- murojaat telefon orqali qabul qilinadi va tegishli tartibda qayd etiladi va hujjat ko'rinishida shakllantiriladi;

4.4. Davlat xizmati orqali kelayotgan murojaatlarni ko'rib chiqish tartibi

"Yagona telefoni (devonxona)" Toshkent viloyati hokimligining "Ijro apparati guruhi"da tashkil etilgan.

"Yagona telefoni (devonxona)" orqali tushayotgan murojaatlarni qabul qilish Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash bo'linmasi bosh mutaxassisi tomonidan amalga oshiriladi.

Viloyat hokimligiga kelib tushgan murojaatlar hokimlikning masalaga taalluqli tegishli mas'ul hodimlari tomonidan ko'rib chiqiladi.

Zarur xollarda murojaatda ko'rsatilgan holat bo'yicha viloyat hokimligining mas'ul hodimi tomonidan joyning o'ziga chiqib o'rganilishi mumkin.

Murojaat bo'yicha javob xatiga viloyat hokimi yoki mas'ul o'rinbosari tomonidan imzo chekiladi.

4.5. Rad etish sabablari

Noqonuniy xatti-harakatlar yuzasidan yoki murojaat yuzasidan qaror qabul qilingan hamda ko'rib chiqilishi hokimlik vakolatiga kirmaydigan murojaatlar rad etilishi mumkin.

5. Ta'minlash sifatligi

5.1. Sifat o'lhovi

Xizmat taqdim etilganligi sifatli baholashning past ko'rsatkichi murojaatning takroriyligidan aniqlanadi.

5.2. Sifatsiz xizmat bo'yicha shikoyat

Murojaatchi o'zining murojaatlarini qabul qilinishi va ko'rib chiqilishi asossiz rad etilishi yuzasidan bo'ysunuv tartibida yuqori organga shikoyat qilishga haqlidir.